

HURMATLI ABITURIYENT! MAZKUR TAQDIM ETILAYOTGAN TEST SAVOLLAR KITOBI ASOSIDA OLDINGIZGA QO'YGAN MAQSAD SARI OLIB BORUVCHI YO'L, ASOSIY TO'SIQDAN O'TIB OLISH IMKONIYATI VA O'ZINGIZGA BO'LGAN ISHONCH HISSIDIR.

TAQDIM ETILAYOTGAN XII BOSQICHLI TEST SINOVLARI: BIRINCHIDAN, SIZNI RUHIY JIHATDAN TAYYORLAYDI, IKKINCHIDAN, YANGI SAVOLLARNI QABUL QILISHGA BO'LGAN MUNOSABAT (YA'NI REAKSIYANGIZ)NI KUCHAYTIRADI UCHINCHIDAN, BOSQICHMA-BOSQICH BILIM DARAJANGIZNI O'SIB BORISHINI TA'MINLAYDI, TO'RTINCHIDAN, JAMIYATDA O'Z O'RNINGIZNI EGALLASH UCHUN KERAK BO'LADIGAN YO'NALISHNI TANLASHINGIZDA ZAMIN HOZIRLAYDI, BESHINCHIDAN DAVLAT IMTIHONLARIDAN OSON O'TISHINGIZNI TA'MINLAYDI. TEST SAVOLLARI BOSQICHMA-BOSQICH YANGILANADI VA MURAKKABLIK KOEFFITSIENTI MOS RAVISHDA OSHIB BORADI. MAZKUR TEST SAVOLLARI DAVLAT TEST MARKAZI TOMONIDAN TASDIQLANGAN ADABIYOTLAR ASOSIDA TUZILGAN.

ABITURIYENT, OMAD!

“ SINOV ”

**REPITITION TEST TOPSHIRUVCHILAR UCHUN
IV BOSQICH**

SAVOLLAR KITOBI

ABITURIYENT: _____

F.I.O.

Imzo

ABITURIYENT DIQQATIGA!

Test topshiriqlarini yechishdan avval savollar kitobini varaqlab, unda har bir fan bo'yicha 36 ta savol mavjudligini tekshiring. Agar savollar soni kamligi aniqlansa yoki savollar kitobi raqami bilan javoblar varag'i raqami bir xil bo'lmasa, darhol auditoriya rahbariga ma'lum qiling.

Savollar kitobida abituriyentning familiyasi, ismi, otasining ismi xato to'ldirilgan yoki to'ldirilmagan va imzosi qo'yilmagan hollarda e'tirozlar ko'rib chiqilmaydi.

Kitob tipi:

20

FANLAR:

Blok 1: Ona tili va adabiyoti

Blok 2: Biologiya

Blok 3: Kimyo

Savollar kitobi raqami:

7023015

ONA TILI VA ADABIYOTI

1. Turnalar samoda chizsa guldasta,
Qoyadək bo'lsa-da burgut viqori.
Toshlar orasidan mo'ralab asta,
Ko'kargan maysani ko'rdim yuqori. (Sh.Qosimov)
Berilgan she'riy parchada ifodalangan kelishiklar haqidagi qaysi fikr to'g'ri?
A) belgili kelishik 3 ta, belgisiz kelishik 3 ta
B) belgili kelishik 4 ta, belgisiz kelishik 3 ta
C) belgili kelishik 2 ta, belgisiz kelishik 3 ta
D) belgili kelishik 2 ta, belgisiz kelishik 4 ta
2. Ona! Bu so'z hayot kabi abadiy. Ona borki. olam bor; ona borki, odam bor.
Ona borki, Vatan bor. Zero, ona kabi muqaddas va tabarruk, aziz va mo'tabar, beg'araz va beminnat inson bu yorug' dunyoda topilmaydi.
Berilgan matnda yuqori tor unilari mavjud bo'lgan so'zlardan nechitasi sifatlovchi-aniqlovchi vazifasini bajargan?
A) 4 tasi B) 3 tasi C) 5 tasi D) 6 tasi
3. Afsuski, o'zlarining bo'lar-bo'lmas gaplari, mahmadonaliklari bilan kishilarning asabiga tegadigan va eng muhimi, ularning sog'lig'ini, qimmatli vaqtlarini o'g'irlyadiganlar hali ham kam emas. Duch kelgan kishiga qalbini ochiq maktubday yoyib yuradigan bunday kimsalarga ko'cha-ko'yda ham, oshxonada va majlislarda ham, bazm-u jamshidlarda ham tez-tez duch kelib turamiz. Alisher Navoiy bunday kishilarni kechalar tong otguncha tinmay huradigan itga o'xshatadi va davom etib yozadi: "Oz gapirmoq hikmatga sabab; oz yemoq – sog'liqqa sabab. Og'ziga kelganni demoq – nodonning ishi va oldiga kelganni yemoq – hayvonning ishi"
Bayt:
"Ko'p demak birla bo'lmasin nodon,
Ko'p yemak birla bo'lmasin hayvon".
Demak, inson har qanday sharoitda ham kerakli so'zlariga aytishi, tiliga ortiqcha erk bermasligi lozim. (S. Mo'minov)
Berilgan parchada faqat tobe so'z bo'lib kelgan otlar miqdori nechta?
A) 15 ta B) 16 ta C) 13 ta D) 14 ta
4. Noto'g'ri yozilgan so'zlar soni nechta?
Assamblea, astog'firullo, muhit, aviyamodel, axiri, buxgaltir, ertalabgi, xurpaymoq
A) Barchasi to'g'ri yozilgan
B) 5 ta so'z noto'g'ri yozilgan
C) 4 ta so'z noto'g'ri yozilgan
D) 6 ta so'z noto'g'ri yozilgan
5. Ham bog'lovchisiz, ham bog'langan, ham ergashgan qo'shma gaplarda ifodalanishi mumkin bo'lgan munosabatlar berilgan javobni toping
1. zidlik; 2. chog'ishtirish; 3. sabab; 4. maqsad; 5. shart; 6. payt
A) qo'shma gaplarda bunday ma'nodoshlik bo'lmaydi
B) 1, 3, 5, 6
C) 1, 2, 3, 4, 5, 6
D) 1, 3, 4, 5, 6
6. So'zlovchining o'z fikrini qisqa va batafsil ifodalab, tinglovchiga yetkazishi ham o'ziga xos san'atdir.
Ushbu gapdagi tub so'zlar qanday gap bo'lagi vazifasini ifodalaydi?
1. ega; 2. kesim; 3. aniqlovchi; 4. to'ldiruvchi; 5. hol
A) 1, 2, 3, 4, 5 B) 3, 4, 5 C) 1, 2, 3 D) 1, 2
7. Yoming ko'rsatmalarini ifodalashda qaysi tasavvufiy istilohdan foydalaniladi?
A) ko'z B) hoda C) lab D) jom
8. Sharq adabiyotida faqat hikmatlar asosida qurilgan asarlarni aniqlang.
1. "Guliston", "Bo'ston" (S. Sheroziy) 2. "Zarbulmasal" 3. "Sadoqatnoma" (Nosir Xisrav) 4. "Muhabbatnoma" (Xorazmiy) 5. "Nazm ul-javohir" (Navoiy) 6. "Mahbub ul-qulub" (Navoiy) 7. "Kalila va Dimna" 8. "Turkiy guliston yoxud axloq" (A. Avloniy)
A) 1, 2, 3, 5, 6, 7, 8 B) 1, 2, 3, 4, 5, 6, 7, 8 C) 1, 3, 4, 5, 6, 8 D) 1, 3, 5, 6, 8
9. Yurtga ega bo'lish oson ish emas,
Yur, o'g'lonim, elni ko'tarish uchun.
Bahor keldi, endi ortiq qish emas,
Yur, o'g'lonim, elni ko'tarish uchun.. (M.A'zam)
Berilgan she'riy parcha o'zak-qo'shimchasi bilan bo'g'inlari miqdori teng bo'lgan so'zlar tarkibida jarangli juftga ega bo'lgan jarangsiz undosh tovushlar miqdori nechta?
A) 2 ta B) 3 ta C) 4 ta D) 1 ta
10. Metonimiya asosida ma'nosi ko'chgan so'z qaysi qatorda ikki xil sintaktik vazifa bajargan?
A) "Semurg'" "So'g'diyona" ni qabul qilib, raqiblar darvozasiga ketma-ket besh ta to'p kiritishga muvaffaq bo'ldi.
B) Mabodo, "Besh bolali yigitcha" kelmadimi?
C) Bola onasining oldiga tushib pildirab ketdi.
D) Yigitning uylanayotganini eshitib qizning qalbi yaralandi.
11. Berilgan matnda yasama fe'llar miqdorini aniqlang.
Bir donishmanddan shogirdlari:
- Nima qilsak tinch va rohatda umr kechiramiz? – deb so'radilar.
Donishmand:
- Hech qayerda hech kimga birorta so'z so'zlamang, sukut eting, - deb javob berdi. Shunda shogirdlari:
- Axir, doim sukut etib yuraveramizmi, bu mumkinmi? Boshqacha yo'l ko'rsating! – dedilar.
Donishmand shunday maslahat berdi:
- Sukut eta olmasangiz, so'zlang, lekin qisqa va ma'noli so'zlang, og'zingizdan sira ham nojo'ya so'z chiqmasin. Yomon so'z tinglovchining ko'nglini xira qiladi, bundan saqlaning.
A) 11 ta B) 12 ta C) 9 ta D) 8 ta
12. Bu yilgi bahorning kech kelishi ko'plarning tincha-madorini quritdi.
Berilgan gapda so'z yasovchi qo'shimchalar bilan shakldoshlik qila oladigan sintaktik shakl yasovchi qo'shimchalar ifodalangan so'zlar qanday gap bo'lagi vazifasini bajargan?
1. ega; 2. kesim; 3. aniqlovchi; 4. to'ldiruvchi; 5. hol
A) 3, 5 B) 1, 2, 4 C) 1, 4 D) 1, 3, 5
13. Hamal keldi// amal keldi.
Berilgan ushbu bog'lovchisiz qo'shma gap qismlari orasiga qanday tinish belgi qo'yilishi kerak?
A) vergul B) ikki nuqta C) tire D) nuqtali vergul
14. Muayyan nutqiy qolip, qat'iy odat tusiga kirib qolgan shakllarga tayanuvchi uslub asosida yozilgan matnni aniqlang?
A) Siyosiy tutqunlik og'ir, lekin milliy o'lim-millatning butkul halokatidir. O'zbek xalqi o'lgan asrda chorizm istilosini tufayli siyosiy tutqunlikka tushdi, biroq milliy qiyofasini yo'qotmadi.
B) Men onamning qattiq betobligi tufayli o'n kun davomida darslarga kela olmadim. Qoldirgan darslarimni o'zlashtirib olishga va'da beraman.
C) Boshlab keldi bu yoqlarga oyoqlarim. Qaytib ona tuprog'imga ketolmadim.
D) Bakteriyalarni o'ldiradigan va organizmni yuqumli kasalliklarga qarshi chidamli qiladigan moddalar qonda bo'ladi.
15. Abayning "Nasihatlar"ida "...Insonni sof saqlaydigan, uni gunohkorlikdan, johillikdan, shaytonning gapiga kirib, nafs balosiga giriftor bo'lishdan saqlaydigan, adashgan bandalarni to'g'ri yo'lga solib yuboradigan ham – menman". Ushbu so'zlar kimga tegishli?
A) Aql B) Yurak C) Gayrat D) Ilm
16. "Siz kuch bergan to'nka endi ko'karmaydi.." qaysi asardan olingan?
A) "Sarob" B) "Ufq" C) "Yulduzli tunlar" D) "Oltin zanglamas"
17. "...Ham forsiy demakka qodir va ham turkcha aytmoqqa mohir" shoir kim?
A) Navoiy B) Husayniy C) Shayboniy D) Bobur
18. Bobom hassasiga suyanib o'pkasini tutolmay, ho'ng-ho'ng yig'laydi. Men bo'zarib bo'ynimni egib qolaman. Menga hamma yoq bo'm-bo'sh, sovuq tuyuladi... (O) Berilgan parchada so'z yasovchi qo'shimcha qo'shilishi natijasida tovush o'zgarishiga uchragan so'zlar miqdorini aniqlang.
A) 2 ta B) 1 ta C) 3 ta D) 4 ta
19. Quyida berilgan qaysi asarda sho'ro tuzumining eng adolatsiz, eng chirkin bosqichi bo'lmish qatag'on davri aks etgan?
A) "Jimjitlik"
B) "Oltin zanglamas"
C) "Shinelli yillar"
D) "Mening o'g'rigina bolam"
20. Hozirjavoblik, ta'sirchanlik belgilariga ega bo'lgan uslubni aniqlang.
A) badiiy B) so'zlashuv C) publitsistik D) ilmiy
21. 1. O'z ko'nglingni ko'tarishning eng yaxshi yo'li kimningdir ko'nglini ko'tarishdir;

2. Har kimki atog'a ko'p rivoyat qilg'ay, o'g'li dan anga bu ish siroyat qilg'ay; (A.Navoiy)
3. Sening har bir ishing boshqalarga ibrat bo'lishini unutma;
4. Og'ziga kelganni demoq nodonning ishi;
5. Ikkalasi ham shahrimizdagi o'zgarishlarni ko'rib lol qolishdi.
6. To'pidan ayrilganni bo'ri yer;
7. Sening tug'ilib o'sgan qishlog'ingdan ayrilmasligingni bilardim;
8. Meniki-seniki deb tortishib, necha marta buni qonadi hamki, og'zini tiyolmaydi.
9. Men ham bir o'g'lingman, ona sayyora, Bag'ring men uchun ham xoki pok bo'lsin.
- Berilgan gaplarda fonetik yozuv asosida yozilgan so'zlar qanday gap bo'laklari vazifasini bajargan?
1. Ega; 2. Ot-kesim; 3. Fe'l-kesim; 4. Qaratqich aniqlovchi; 5. Sifatlovchi-aniqlovchi; 6. Hol; 7. To'ldiruvchi
- A) 1, 3, 4, 5, 6, 7 B) 2, 3, 4, 5, 6, 7 C) 3, 4, 5, 7 D) 2, 3, 4, 5, 7
22. Har ko'zki, agar olmasa ibrat, ko'rdir,
Har luqma, agar bermasa lazzat, sho'rdir.
Har to'n, agar o'zgarmasa, to'nmas, u kafan,
Har xonaki, birdek turaversa, go'rdir. (Abdulqodir Bedil)
Ushbu she'riy parchada yasama so'zlar miqdori nechta?
A) 1 ta B) 2 ta C) 3 ta D) 4 ta
23. Qaysi asarda turli personajlar taqdiri misolida inson hayotini rejalashtirib bo'lmasligi, u har daqiqada kutilmagan o'zgarishlarga yuz tutishi mumkinligi g'oyat ta'sirli aks ettirilgan?
A) "Kapitan qizi" B) "Yevgeniy Onegin" C) "Chinor" D) "Tappon xonim"
24. "...Odam bolasi tug'ilgan paytda pokiza bo'ladi-ku. Uning umrbod shunaqa pokiza bo'lib qolishi sizga, menga, hammaga bog'liq emasmi?..." Ushbu so'zlar qaysi qahramon tilidan aytilgan?
A) Alimardon B) Doniyor C) Asror D) Mutal
25. Chuqur til orqa, sirg'aluvchi undosh bilan yoziladigan so'zlar nechta?
1) ra...bar; 2) ray...on; 3) ra...na; 4) sa...royi; 5) sa...armardon; 6) sa...ifa; 7) uchmo...; 8) va...ima; 9) ...ayol; 10) ...ijil; 11) ...uddi
A) 5 ta B) 6 ta C) 3 ta D) 4 ta
26. "Boburnoma"da qayer "Purmardum" deb ta'riflangan?
A) Andijon B) Buxoro C) Hindiston D) Samarqand
27. Berilgan matnda fonetik yozuv qoidasi asosida yozilgan so'zlar soni nechta? Ustoz adibning mashhur "Ming bir jon" hikoyasida shunday so'zlar bor: "Bu xotinning joni bitta emas, ming bitta edi. Hozir tugab qolgan shamdek lipillab yonayotgan joni basharti so'ngan taqdirda ham qolgan mingtasini yoqib, keyin so'nadi". Abdulla Qahhorning ham chirog'i so'ndi. Lekin u ming-minglab o'quvchilari, ixlosmandlari, shogirdlari yuragiga chiroq yoqib ketdi. Bu chiroq sira zavol bilmas, bu chiroq sira o'chmas chiroqdir. (S.Ahmad)
A) 7 ta B) 6 ta C) 5 ta D) 8 ta
28. Bobom hassasiga suyanib o'pkasini tutolmay, ho'ng-ho'ng yig'laydi. Men bo'zarib bo'ynimni egib qolaman. Menga hamma yoq bo'm-bo'sh, sovuq tuyuladi... (O) Berilgan parchadagi turlangan so'zlar qaysi bo'laklarga tobelangan?
1. egaga; 2. kesimga; 3. aniqlovchiga; 4. to'ldiruvchiga; 5. holga
A) 2, 5 B) 2, 3, 5 C) 1, 4 D) 2
29. Shakldoshlik xususiyatiga ega bo'lgan so'zlarni aniqlang.
1. Yoq; 2. Ol; 3. Oz; 4. Sho'ra; 5. Yashar; 6. O'z
A) 1, 2, 3, 4, 5, 6 B) 1, 2, 3 C) 1, 2, 4, 5 D) 2, 4, 6
30. Bir so'z bilan har kishi,
O'zligini ko'rsatar.
So'z gavharin ko'pincha,
Dono olar, ko'r sotar. (Tolib Yo'ldosh)
Berilgan she'riy parchada ichi bo'sh so'zlar miqdori nechta?
A) Bunday so'z yo'q B) 1 ta C) 2 ta D) 3 ta
31. Sizning bu hayotda orzu-intilishingiz, ko'zlagan maqsadingiz, qiladigan ishlaringiz ko'p, lekin hech qachon unutmangki, sizning eng buyuk, eng muqaddas vazifangiz-yurtimiz istiqoloni, xalqimiz erk-u ozodligini ko'z qorachig'iday asrash, uning xavfsizligini himoyalashdir.
Berilgan matnda yasama so'zlar tarkibida mavjud bo'lgan jarangsiz undoshlar miqdori nechta?
A) 9 ta B) 11 ta C) 12 ta D) 13 ta
32. Qoraxoniylar, somoniylar, saljuqiylar, g'aznaviylar, xorazmshohlar, temuriylar davrida yuqoridagi so'zlarga amal qilingan... Darhaqiqat, o'tmishdan saboq olib, kelajagini dadil barpo etayotgan millatni yengish sira mumkin emas. O'zbek davlatchiligining asoslari juda mustahkam.
Berilgan gapdagi lug'aviy shakl yasovchi qo'shimchalar sonini aniqlang.
A) 7 ta B) 6 ta C) 8 ta D) 5 ta
33. Qaysi asarda yozuvchilarni uch turga bo'lib toifalaydigan jurnal va unga asarini chop ettirolmay sarson bo'lgan qalamkash haqida ma'lumot berilgan?
A) "Sarob"
B) "Beozor qushning qarg'ishi"
C) "Ko'k eshik"
D) "Oltin zanglamas"
34. Yuragida qanday sir bor//mana bu menga sir. Berilgan ushbu bog'lovchisiz qo'shma gap qismlari orasiga qanday tinish belgi qo'yilishi kerak?
A) vergul B) ikki nuqta C) tire D) nuqtali vergul
35. Ko'hna Turon-ona Turkistonda azaldan bitta g'oya, bitta tushuncha hamma narsadan muqaddas sanalib kelingan. Bu g'oya Vatan, ona yurtga muhabbat, mangu ehtirom tuyg'usidir. Shu tabarruk zaminning munosib farzandlaridan biri sanalgan Yusuf Xos Hojib boqiy davlat uchun to'rtta tirgak kerakligini "Qutadg'u bilig" asarida qayta-qayta ta'kidlagan edi. Bular kuch-qudrat, aql-farosat, sabr-toqat va bilimdir. Tarixdan ma'lumki, shularga asoslangan davlatlar hech qachon kam bo'lmagan.
Berilgan matnda lug'aviy ma'noga ega bo'lgan tub sof fe'llar miqdori nechta?
A) bunday fe'l yo'q B) 3 ta C) 2 ta D) 1 ta
36. Berilgan she'riy parchada nechta so'z birikmasi bor?
Avliyolar, daholarning beshigisan,
Naqshbandlar topgan jannat eshigisan,
Tiriklikning navosi ham qo'shig'isan,
Sen azizsan, muqaddassan, ey sajdagoh,
O'zbekiston, ota makon, ona tuproq!
A) 4 ta B) 5 ta C) 6 ta D) 7 ta

BIOLOGIYA

37. Qaysi belgilar yassi chuvalchlanglarda aromorfoz (a) va umumiy degeneratsiya (b) natijasida vujudga kelgan?
1) planariyada uch shoxli ichak hosil bo'lishi; 2) bir uchi berk ayirish naychalari; 3) oziqni tana yuzasi bilan shimib olishi; 4) harakatlanish a'zosining yo'qligi; 5) nerv hujayralari; 6) tuxumdon va urug'don; 7) qizilo'ngach; 8) halqum
A) a-6, 7; b-3, 2 B) a-1, 8, 6; b-3, 4 C) a-5, 8; b-3, 2 D) a-1, 2; b-3, 4
38. Atmosferada kislorod miqdori 3% dan ortgandan keyin va 20% ga yetgandan keyin hosil bo'lgan xordali hayvonlarni aniqlang.
1) stegosefallar; 2) sudralib yuruvchilar; 3) arxcopteriks; 4) yirtqich tishli kaltakesak; 5) qalqondor baliqlar; 6) tuxum qo'yuvchi sutemizuvchilar
A) 5, 1 B) 1, 3 C) 2, 6 D) 3, 4
39. Parpida fotosintez jarayonida 258 mol erkin kislorod ajralib chiqqan bo'lsa fotosintez jarayonida necha mol ATF sarflangan va necha mol glukoza hosil bo'lgan?
A) 270 mol ATF sarflangan; 15 mol glukoza sintezlangan
B) 135 mol ATF sarflangan; 7,5 mol glukoza sintezlangan
C) 774 mol ATF sarflangan; 43 mol glukoza sintezlangan
D) 540 mol ATF sarflangan; 30 mol glukoza sintezlangan
40. Jigar qurtining ikki shoxli ichagi rivojlanishining qaysi bosqichida paydo bo'ladi?
A) sistada B) kiprikli lichinkada C) voyaga yetgan davrida D) dumli lichinkada
41. Aristotel "zoofitar" deb nomlangan organizmlar qoldiqlari Osiyoning qaysi hududidan topilgan?
A) Amudaryo va Sirdaryo oralig'i, Orol dengizi
B) Turkiston, Olatog', Zarafshon tog'lari
C) Hisor, Turkiston, Zarafshon tog' tizmalari
D) Teshiktosh g'ori, Obirahmat g'ori
42. Taroqqa o'xshash tirnoq (a), egilgan tirnoq (b), ilmoqsimon egilgan va xaltaga kirib turuvchi tirnoq (c) hamda yassi tirnoqqa (d) ega bo'lgan hayvonlarni aniqlang.

- 1) qoraqurt; 2) gibbon; 3) pampas; 4) butli o'rgimchak; 5) gorilla; 6) tasqara; 7) jo'rchi; 8) falanga; 9) biy; 10) shimpanze; 11) ilvirs; 12) yashil martishka; 13) qarchig'ay; 14) miqqiy
A) a-1,4,8,9; b-6,7,13,14; c-3,11; d-2,5,10,12
B) a-1,4,9; b-2,12,6; c-7; d-2,3,5
C) a-8,9; b-13,7,14; c-3,6; d-2,5,12
D) a-1,4; b-7,6,13,14; c-3,11; d-2,5,10,12
43. DNK polimeraza (a) hamda RNK polimeraza (b) moddalar tarkibidagi monomerlar (I), ular ishtirokida kechuvchi jarayonlar (II) va bu jarayonda qatnashuvchi monomerlar (III) ni ko'rsating.
1) gistidin; 2) guanin; 3) glitsin; 4) leysin; 5) metionin; 6) adenin; 7) uratsil; 8) timin; 9) tirozin; 10) triptofan; 11) replikatsiya; 12) transduksiya; 13) transkripsiya 14) translokatsiya; 15) reduplikatsiya; 16) translyatsiya
A) a-I-1,2,3; II-11; III-7,8; b-I-9,8,10; II-12; III-13,14,16
B) a-I-1,3,4; II-14; III-6,7,8; b-I-4,9,10; II-15; III-2
C) a-I-4,9,10; II-15; III-2,6,8; b-I-1,3,4; II-13; III-2,6,7
D) a-I-3,4,5; II-11; III-8; b-I-1,3,10; II-16; III-3,7,8
44. Janubiy G'arbiy Osiyo markazidagi o'simliklari qaysi oilalarga mansub?
A) bug'doydoshlar, burchoqdoshlar, ziradoshlar
B) bug'doydoshlar, ziradoshlar, karamdoshlar, sho'radoshlar
C) bug'doydoshlar, sho'radoshlar, burchoqdoshlar
D) sho'radoshlar, ziradoshlar, ituzumdoshlar
45. Entomafag (a), fitofag (b) hamda entomafag va fitofag (c) bo'lgan organizmlarni aniqlang.
1) chug'urchiq; 2) tuvaloq; 3) g'oz; 4) laylak; 5) boyo'gli; 6) hasva qandalasi; 7) mayna; 8) ninachi lichinkasi; 9) toshbaqa; 10) tulki
A) a-2,5,7; b-3,6,9; c-5,7,8,10
B) a-2,6; b-1,3,4,9; c-1,2,7
C) a-4,5,10; b-3,6,8,9; c-1,2,7
D) a-4,5,8; b-3,6,9; c-1,2,7,10
46. Quyonlarning bir populyatsiyasida qo'ng'ir (AA va Aa) hamda oq (aa) rangli quyonlar bor. Qo'ng'ir rangli quyonlar populyatsiyasini 64% ni tashkil qiladi. Populyatsiyadagi dominant (A) va retsessiv (a) genlar chastotasini Xardi-Vaynberg qonuni asosida aniqlang.
A) 40%, 60% B) 48%, 32% C) 64%, 36% D) 60%, 40%
47. Yashash uchun kurashda anorganik tabiatning noqulay sharoitiga qarshi kurashib g'olib bo'la olmaydigan organizmlarni aniqlang.
A) bakteriya va planariya
B) amyoba va evglena
C) gidra va o'rgimchak
D) o'rgimchak va planariya
48. Gullariga nisbatan bargining kattaligi o'zgaruvchan bo'lgan (a) va barglariga nisbatan gullari oldinroq rivojlanadigan (b) o'simliklarning changlanish usulini ko'rsating.
A) a-hasharotlar yordamida; b-sun'iy
B) a-shamol yordamida; b-shamol yordamida
C) a-hasharotlar yordamida; b-shamol yordamida
D) a-shamol yordamida; b-hasharotlar yordamida
49. Diploid navli bug'doyda 21 ta (a) va tetraploid navli bug'doyda 42 ta (b) xromosomaga ega bo'lgan qismlarini ko'rsating.
1) arxeospora hujayrasi; 2) mikrospora hujayrasi; 3) yetilgan chang donasi; 4) markaziy hujayra; 5) generativ hujayra; 6) urug'langan markaziy hujayra; 7) murtak xaltasi mikrofil tomonidagi hujayralar; 8) urug'langan tuxum hujayra
A) a-3,7; b-6,8 B) a-1,2; b-3,6,7 C) a-4,5; b-7,8 D) a-3,4; b-6,7
50. Erkak va urg'ochi organizmlarni hujayrasida jinsiy X xromosoma soni 2:1 (a) va 1:2 (b) bo'lgan organizmlarni aniqlang.
1) uzun burunli kapalak; 2) buyvol; 3) moyqurt; 4) odam; 5) melanogaster; 6) kallima; 7) gattereya
A) a-1,3,6,7; b-2,4,5 B) a-2,4,5; b-1,3,6,7 C) a-3,5,6,7; b-1,2,4 D) a-3,6,7; b-1,2,4,5
51. Bemor insonni qorning yuqori qismida og'riq seziladi, ko'ngli ayniydi, qusish kuzatiladi (I) va o'ng qovurg'alar ostida vaqt-vaqti bilan og'riq seziladi, tez yugurganda og'riq kuchayadi (II). Ushbu holat qaysi kasalliklarda kuzatilishi mumkin?
A) I-me'da shilliq pardasini yallig'lanishi; II-ovqatdan zaharlanish
B) I-ingichka ichak shilliq pardasini yallig'lanishi; II-me'da shilliq pardasini yallig'lanishi
C) I-ovqatdan zaharlanish; II-surunkali gepatit
D) I-ovqatdan zaharlanish; II-surunkali gastrit
52. Ontogenetik (a) va modifikatsion (b) o'zgaruvchanliklarni farqlang.
1) timozin gormoni kamayib ikkilamchi jinsiy belgilarning paydo bo'lishi; 2) 1-yoshdan 25-yoshgacha qalqonsimon bez hajmi ortishi; 3) endemik buqoqda qalqonsimon bez hajmi ortishi; 4) peshona liqildog'ining bitishi; 5) tog' kasalligida yurak urishining tezlashishi; 6) yoz faslida ichaklarda mayatniksimon harakatning susayishi; 7) ichburug' amyobasi yo'g'on ichak devorini yemirishi; 8) leishmaniya terida tuzalmaydigan yara hosil qilishi
A) a-1,2,4,7; b-5,6,8 B) a-2,4,7; b-3,5,8 C) a-3,5,6; b-1,2,8 D) a-1,2,4; b-3,5,6
53. Bezag kasalligining qo'zg'atuvchisi (a) va tarqatuvchisi (b) ni ko'rsating.
A) a-chivin; b-sporali hayvon
B) a-bezag chivini; b-bakteriya sporasi
C) a-parazit bir hujayrali hayvon; b-ikki qanoqli hasharot
D) a-bezag paraziti; b-bezag pashshasi
54. Qanoti mavjud uchmaydigan qush (a), qanoti mavjud bo'lmagan qush (b) va qanotsiz daraxtda yashovchi sutemuzuvchi (c) hayvonlarni aniqlang.
1-nandu; 2-iguana; 3-ilon; 4-kazuar; 5-kivi; 6-epifital; 7-jayra; 8-magellan; 9-opossum; 10-revun
A) a-4,8; b-5; c-7 B) a-1,4; b-8; c-10 C) a-1,8; b-5; c-3,6 D) a-4,8; b-1; c-9,7
55. Tuxum hujayraning boshqa hujayralardan asosiy farqini aniqlang.
A) gaploid to'plamga ega bo'lishi
B) ayrim organizmlarda urug'lanmasdan yangi organizm hosil bo'lishi
C) amyobasimon shakl, harakatsiz bo'lishi
D) shaklining katta bo'lishi
56. DNK dagi a,b,c genlardan hosil bo'lgan oqsil monomerlarining umumiy soni 315 ta, b gendan hosil bo'lgan oqsildagi monomerlar soni a gendan hosil bo'lgan oqsil monomerlar sonidan 10 taga ko'p, c gendan hosil bo'lgan oqsil monomerlar sonidan esa 1,25 marta kam. DNK ning a genidagi A lar sonini aniqlang. (Nukleotidlar nisbati a genda A:G-1:3,5; b genda T:S-1:1,5; c genda A:S-2:1 ga teng)
A) 120 B) 60 C) 250 D) 180
57. Quyidagilardan tarixiy kelib chiqish ketma-ketligi to'g'ri ko'rsatilgan qatomi aniqlang.
1) qalqondorlar; 2) ichaksiz kiprikli chuvalchanglar; 3) amfibiyalar; 4) lansetniklar; 5) trilobitlar; 6) molluskalar; 7) qisqichbaqalar; 8) sudralib yuruvchilar; 9) halqali chuvalchanglar; 10) bo'shliqchilar
A) 10→2→9→4→1 B) 9→4→1→3→8 C) 2→9→5→7→6 D) 1→9→5→4→3
58. Po'st tashlab o'sadigan birlamchi suvda yashovchi (a) va birlamchi quruqlikda yashovchi (b) hayvonlar sinfiga mansub organizmlarni aniqlang.
1) iguana; 2) qiloyoq; 3) yelik; 4) langust; 5) mangust; 6) yonsuzar; 7) kobra; 8) qalqontumshuq
A) a-4,6; b-1,7
B) a-2,5; b-3,8
C) a-5,6; b-1,2
D) a-1,6; b-7,8
59. Sog'lom odam yuragining chap qorinchasidan bir-kecha kunduzda 8100 l qon aorta qon tomiriga oqib o'tgan bo'lsa, yurakning bir marta qisqarishi natijasida necha (ml) venoz (a) va arterial (b) qon qon tomirlarga chiqadi? (yurakning o'rtacha bir ish sikli 0,8 soniya davom etadi)
A) a-75; b-75 B) a-70; b-72 C) a-140; b-144 D) a-150; b-150
60. Filogenezni o'zgarishiga sabab bo'lgan foydali mutatsiyalarni aniqlang.
1) chigitdan ungan g'o'zda yaxlit plastinkali barg hosil bo'lishi; 2) jirafalarda bo'yinning uzun bo'lishi; 3) reptilyalarda tangachalarni hosil bo'lishi; 4) baqa lichinkasida yon chiziqning bo'lishi; 5) nereida qon aylanish doirasining paydo bo'lishi; 6) sutemizuvchilarda soch xaltasini hosil bo'lishi
A) 3,6,5 B) 3,4,6 C) 1,2,4 D) 1,5,6
61. Tabiiy sharoitda bitta biogeotsenoz tarkibida uchramaydigan organizmlarni aniqlang.
A) gidra va aktinya
B) oq planariya va qizil chuvalchang
C) suv shillig'i va baqachanoq
D) ninachi va ko'k sug'ur

62. Zigota maydalanish bosqichiga o'tishdan oldin tinim davri kuzatiladigan tuban (a) va yuksak (b) organizmlarni aniqlang.
A) *a-uloatriks; b-funariya yo 'sini*
B) *a-mog'or zamburug'i; b-sershox qirqbo'g'im*
C) *a-penitsill; b-gidra*
D) *a-uloatriks; b-sershox qirqbo'g'im*

63. Quyida berilgan gul diagrammasiga ega bo'lgan oila vakillariga tegishli ayrim o'simliklar uchun xos belgilarni tanlang.



- 1) simbioz hayot kechirishadi; 2) gullari ikki jinsli; 3) oddiy bargli; 4) o'ralib o'sadi; 5) uglevodlarni ko'p miqdorda saqlaydi; 6) mevasi tuproqda bo'ladi; 7) mevasi tuxumsimon; 8) barglari poyada qarama-qarshi joylashgan; 9) changchisi erkin; 10) ba'zan yonbarsiz; 11) barcha hayotiy shaklga ega o'simliklar mavjud; 12) g'amlovchi to'qimasi yaxshi rivojlangan; 13) ostki gultojbarglari qo'shilib ketgan; 14) shingil to'pgul hosil qiladi; 15) yarim buta hayotiy shakli mavjud emas; 16) paleoarktik biogeografik viloyatida tarqalgan
A) 7,3,6,8,12,1,9,4,5,16,14
B) 3,2,14,9,5,10,1,13,1
C) 3,15,5,12,9,13,14,11,4
D) 6,11,4,12,1,9,2,7

64. Dumi ayri (a), tili ayri (b) va kamar suyagi ayri (c) bo'lgan hayvon(lar)ni aniqlang.
1) ko'l baqa; 2) ko'lbuqa; 3) kaxkat; 4) nereida; 5) qaldirg'och; 6) and kondori; 7) magelan; 8) iguana; 9) qalqontumshuq; 10) qirg'iy; 11) tritsopetops; 12) temirchak; 13) chirildoq; 14) mindano
A) *a-5,4,13,14; b-1,9,8,11; c-2,3,5,6,7,10*
B) *a-3; b-1,8,9; c-2,3,5,6,7,10*
C) *a-3,4,5,10; b-1,9,11; c-14*
D) *a-3,5; b-1,8,9; c-6,3,2,12*

65. Sistematik birliklar ketma-ketligi asosida joylashtirilgan to'g'ri javobni aniqlang.
A) *giyena, it, itsimon, sutemizuvchi, xordali*
B) *giyena, it, bo'risimon, yirtqichlar, sutemizuvchi, xordali*
C) *giyena, bo'ri, itsimon, yirtqichlar, sutemizuvchi, xordali*
D) *giyena, it, yirtqich, bo'risimon, sutemizuvchi, xordali*

66. Z.M. Bobur biologiyaga doir fikrlar bildirishda tekshirishning qanday usulidan foydalangan?
A) *tarixiy*
B) *kuzatish*
C) *eksperimental*
D) *populyatsion – statistik*

67. Gripp kasalligi asorati hisobiga kelib chiqadigan kasalliklarni aniqlang.
1) tireotoksikoz; 2) zotiljam; 3) letargiya; 4) ensefalit; 5) polimiyelit; 6) ganglionit; 7) meningit; 8) nevroz; 9) bepushtlik; 10) ichburug'; 11) nevrologiya
A) 9,4,11,6 B) 4,2,5,3 C) 7,9,11,1 D) 8,10,5,9

68. Uzunligi 6800 nm dan uzunroq bo'lgan plazmidni aniqlang.
A) *RSS 10* B) *pBR322* C) *Ti* D) *EcoRI*

69. AQSh (amerika) olimlari tomonidan biologiya fanidagi amalga oshirilgan yangiliklar to'g'ri berilgan javobni belgilang.
1) gibridoma hujayralari hosil qilindi; 2) "asos" hujayralarda yangi organlar yaratish texnologiyasini kashf qildi; 3) rekombinant DNK olindi; 4) o'simlik va hayvonlardagi ko'chib yuruvchi genetik elementlar kashf qilindi; 5) OITS virusini aniqladi; 6) belgilarning birikkan holda irsiylanish qonuni ochildi; 7) mutatsion nazariya yaratildi; 8) letal mutatsiyalarni aniqlash usullari ixtiro etildi
A) 2,5,6,8 B) 2,3,6,8 C) 1,2,6,4 D) 4,5,7,8

70. Tirozin aminokislotasini tashuvchi t-RNKning antikodonini aniqlang.
A) *ATG* B) *AGA* C) *TAS* D) *ASA*

71. Qon tarkibida H⁺ ionlari kamayib ishqoriyligi ortdi. Ushbu holatda pH qiymatini fiziologik-kuchsiz ishqoriy holatga kelganda, qonda qaysi modda ko'paygan (a) va kamaygan (b) bo'ladi?
A) *a-H₂CO₃; b-HCO₃⁻*
B) *a-H₂PO₄⁻; b-HPO₂⁻*
C) *a-HCO₃⁻; b-H₂CO₃*

D) *a-HPO₄²⁻; b-H₂PO₄⁻*


72. Sardorning kundalik ovqat ratsionida burchoqdooshlar oilasiga mansub o'simliklar mevasi ko'p uchraydi. Agar ular tarkibidagi vitaminlar organizmga me'yorida o'zlashtirilishi ta'minlanmasa, unda qanday belgilar vujudga kelmasligining oldi olingan?
A) *qo'l-oyoq muskullarning uvushib og'rishi*
B) *suyaklari egirlanib qolishi*
C) *terisining quruqlashishi*
D) *milklarning shishib og'rishi*

KIMYO

73. Odam organizmidagi (70 kg) litiyning o'rta miqdori (g) aniqlang.
A) 250 B) 0,68 C) 70 D) $6,7 \cdot 10^{-4}$

74. Havosiz idishga argon to'ldirilganda, sof idish bilan argonli idish massalarining farqi 0,25 g, argon xlor bilan almashinganda massalar farqi 0,444 g va uni xlorning kislorodli birikmasi bilan almashinganda massalar farqi 0,422 g bo'lsa, oksid (2,5 mol) tarkibidagi xlor bilan kislorodning massa farqini (g) aniqlang.
A) 57,5 B) 31,25 C) 8,75 D) 18,75

75. Quyidagi ketma-ketlikdagi izotoplarning protonlar soni qanday o'zgaradi?



Bu yerda: $y-x = -1$ va $y \neq 1$.

- a) kamayadi; b) o'zgarmaydi; c) ortadi
A) *c,a,a,a* B) *a,c,b,c* C) *c,c,a,c* D) *a,c,a,c*

76. Oltinugurt organik birikmalarda qanday oksidlanish darajalarini namoyon qiladi? (S_(2,5), C_(2,5))
A) *-2, -1, 0, +1, +2, +4, +6*
B) *-2, -1, 0, +2, +4, +5, +6*
C) *-1, 0, +2, +4, +5, +6*
D) *-1, 0, +1, +2, +4, +6*

77. 200 ml ($\rho = 1,4$ g/ml) 50% li H₂SO₄ eritmasining konsentratsiyasi 15 mol/kg bo'lguncha elektroliz qilindi. Hosil bo'lgan eritmadan 50% li oleum olish uchun necha gramm SO₃ kerak bo'ladi?
A) 1082 B) 9700 C) 1120 D) 1225

78. 2 litr suvda 2 mol PI₃ eritildi va gidroliz to'liq ketdi. Hajm necha marta kamayadi?
A) *o'zgarmaydi* B) 1,12 C) 1,06 D) 1,4 marta ortadi

79. Milon reaktivini tayyorlash (I) va oqsil tarkibida tirozin moddasi borligini aniqlash (II) jarayonlarning ketma-ketligini aniqlang.
1) qizdirish; 2) suv qo'shish; 3) simobni HNO_{3(kons)} eritmasida eritish; 4) simob tuzlarini HNO_{3(kons)} eritmasida eritish; 5) probirkaga oqsil moddasidan quyish; 6) Milon reaktivini qo'shish
A) *I-3, I-2; II-5,6* B) *I-3,2; II-5,2+3,1* C) *I-3,2,1; II-5,2,6* D) *I-4+2; II-5,6,1*

80. Aluminiy gidroksidning kislotaga qoldiqlarini bir ekvivalent massasini (g) aniqlang.
A) 61; 22; 9 B) 77; 38; 25 C) 61; 44; 27 D) 77; 26; 9

81. Litiy quruq havoda qoldirilganda uning massasi 80% ga ortdi. Dastlabki litiy qanday massa qismlarda reaksiyaga kirishgan?
A) 3:7 B) 1:2,6 C) 3:2 D) 2,15:4

82. Oksid tarkibidagi E⁻² ionining bitta qavati va ikkita pog'onachasi elektron bilan to'lgan. Oksid molekulasida nechta elektron bo'ladi?
A) 10 B) 13 C) 20 D) 26

83. Qaysi moddalarning suvli eritmalarini tayyorlab bo'lmaydi?
1) CH₃COONH₄; 2) Al₂S₃; 3) HgCO₃; 4) Fe₂(CO₃)₃; 5) NaCl; 6) BaCO₃; 7) MnS
A) 2,3 B) 1,2,7,4 C) 1,2,6,7 D) 2,3,4,6,7

84. Tarozining bir pallasiga yopiq idishda havo ($\varphi_{N_2} = 0,75$ $\varphi_{O_2} = 0,25$), ikkinchi pallasiga NO solindi va muvozanat qaror topdi. Havo bilan NO aralashirilgandan keyin aralashmaga 44 g SO₂ qo'shildi va molyar massasi 38 g bo'lgan aralashma hosil bo'ladi. Havo tarkibida necha gramm kislorod bo'lgan?

- A) 4,8 B) 6,4 C) 3,2 D) 5,6
85. $C_{10}H_{22}$ tarkibli uglevodorodning necha xil simmetrik izomerlari bo'ladi?
A) 5 B) 7 C) 8 D) 16
86. Havoning namlik darajasi 21% ga teng. Agar nam havoning o'rtacha molyar massasi 25,6 g/mol ga teng bo'lsa, nam havo tarkibidagi kislorod va azot qanday massa nisbatda bo'ladi? Havoning namlik darajasi suvning massa ulushiga nisbatan olinadi.
A) 1:2 B) 1:6 C) 2:1 D) 2:6
87. Ekvimolyar miqdorda olingan oltingugurt (IV) oksid va kislorod o'zaro ta'sirlashganda reaksiyaning o'ng tomonidagi modda miqdori (mol/l) bilan chap tomonidagi moddalar miqdori (mol/l) yig'indisi teng bo'lganda kimyoviy muvozanat qaror topdi. Aralashmaning etanga nisbatan solishtirma massasini aniqlang.
A) 1,5 B) 2 C) 2,2 D) 1,2
88. Ma'lum bir sharoitda H_3PO_4 eritmasi tarkibida qanday ionlar uchraydi va eritmadagi ionlar miqdorini ortib borish tartibida joylashtiring?
1) H^+ ; 2) PO_4^{3-} ; 3) $H_2PO_4^-$; 4) H_3O^+ ; 5) HPO_4^{2-} ; 6) OH^-
A) 4,6,1,2,5,3 B) 6,4,2,5,3,1 C) 4,6,2,5,3,1 D) 6,2,5,3,1
89. Suvning doimiy qattiqligini hosil qiluvchi anionlarga asosan SO_4^{2-} ionlari kiradi. Qattiqlikni hosil qilgan kation va anionlarning massa nisbatlari 0,7:2 ga teng. Umumiy qattiqligi 7 mg-ekv/l bo'lgan $1 \cdot 10^5$ ml suvning qattiqligini yo'qotish uchun soda eritmasidan necha litr kerak bo'ladi. (soda eritmasining konsentratsiyasi 0,7 mol/l ga teng)
A) 1,5 B) 5 C) 0,5 D) 1
90. Tiofen molekulasiga xos bo'lmagan gibridlanish tur(lar)ini aniqlang.
1) sp; 2) sp^2 ; 3) sp^3
A) 1,2 B) 1 C) 3 D) 1,3
91. 4 litrli gaz balonda azot gazi 320K va 3,94 atm bosimda joylashtirilgan. Xuddi shu sharoitda azot gazi ustiga 11,2 l (n.sh.) kislorod gazi qo'shildi. Agar umumiy massa 3,2 kg bo'lsa, idishning massasini (g) aniqlang.
A) 3184,2 B) 3180,2 C) 3190,2 D) 3167,2
92. Toluol qaynash haroratida xlorlanganda nisbiy zichligi 1,154 ga teng bo'lgan benzil xlorid va benzodixlorid aralashmasi hosil bo'ladi. Agar benzil xloridning nisbiy zichligi 1,09 ga va benzodixloridning nisbiy zichligi 1,25 ga teng bo'lsa, aralashma tarkibidagi benzil xloridning mol ulushini (%) aniqlang.
A) 70 B) 75 C) 80 D) 60
93. 1000 ml sariq tusli eritmaning massa konsentratsiyasini aniqlash uchun ikki qismga ajratildi. Birinchi qismiga sariq qon tuzi eritmasidan 500 ml (1,2 mol/l), ikkinchi qismiga fenol eritmasidan 212,8 g (12 mol/kg) sarflandi. Shunda binafsha rangli eritma hosil bo'ladi. Dastlabki eritmaning massa konsentratsiyasini (g/ml) aniqlang.
A) 0,24 B) 0,2 C) 0,4 D) 0,48
94. Atomdagi valent elektronlarning bosh kvant sonlar yig'indisi 21 ga, orbital kvant sonlar yig'indisi 5 ga va spin kvant sonlar yig'indisi 0,5 ga teng bo'lsa, shu atom elementining davriy sistemadagi o'rnini aniqlang.
A) 4-davr, III-ko'shimcha guruh
B) 3-davr, III-guruh
C) 3-davr, VII-guruh
D) 4-davr, V-ko'shimcha guruh
95. Ikki xil silanollar aralashmasi degidratlanganda ekvimolyar nisbatda 30,15 g kremniy organik moddalar va 4,05 g anorganik modda hosil bo'ladi. Silanollar molyar massasini (g/mol) aniqlang.
A) 62; 76 B) 62; 90 C) 76; 90 D) 68; 84
96. 14,7 g sof bertolle tuzi katalizator ishtirokida qizdirilgandan so'ng, dastlabki massaga nisbatan 1,88 g ga kam qoldiq hosil bo'ladi. Ushbu jarayon uchun reaksiya unumi 50% ga teng. Agar reaksiya unumi 70% ga teng bo'lsa, ikki unumdandan hosil bo'lgan qoldiqlar massa farqini (g) aniqlang?
A) 0,37 B) 1,75 C) 1,15 D) 0,75
97. Quyidagi reaksiyalarni davom ettiring va o'ng tomondagi koeffitsiyentlar yig'indisini ortib borish tartibida joylashtiring.
1) $HgS + CaO = \dots$
2) $Ti + HCl_{(s)} = \dots$
3) $TiO_2 + Cl_2 + C = \dots$
- A) 1,2,3 B) 1,3,2 C) 3,2,1 D) 2,3,1
98. Uglerod monooksid tarkibidagi uglerod qanday valentlik(lar)ni namoyon qiladi?
A) II B) I C) II, III D) III
99. Javoblar orasidan metil radikaliga boyligi eng kam bo'lgan moddani aniqlang.
A) n-butan B) 2-metilgeksan C) 3-metilheptan D) 3,4-dimetilnonan
100. $X + CH_3COOH \rightarrow D$. D moddani molyar massasi X moddani molyar massasidan 143% ga ko'p. 40,8 g D modda necha gramm suv bilan reaksiyaga kirishadi?
A) 3,6 B) 7,2 C) 14,4 D) 10,8
101. Noma'lum modda tarkibida K/C atom nisbati 1 ga, O/C atom nisbati 3 ga va metalmas/metall atom nisbati 6 ga teng bo'lsa, shu moddani bitta zarrachasi tarkibida nechta elektron bo'ladi?
A) 54 B) 62 C) 51 D) 102
102. 1 dm³ idishda C va D modda sintezi jarayonida A moddadan 0,4 mol, B moddan 0,5 mol/l olindi ($xA + yB \leftrightarrow zC + zD$). Keltirilgan reaksiya tezliklarining qaysi birlari yuqoridagi jarayonni qanoatlantiradi? ($x+y=4$; tezlik konstantasi 0,5 ga teng)
1) $1,6 \cdot 10^{-2}$ mol/l-soniya; 2) $3,2 \cdot 10^{-3}$ mol/l-soniya; 3) $4 \cdot 10^{-4}$ mol/l-soniya; 4) $5,0 \cdot 10^{-3}$ mol/l-soniya; 5) $2 \cdot 10^{-2}$ mol/l-soniya; 6) $2,5 \cdot 10^{-2}$ mol/l-soniya;
A) 1,3,5 B) 2,3,4 C) 1,5,6 D) 2,4,6
103. 4 g silikagel ($nSiO_2 \cdot mH_2O$) ning faol sirti 1860 m² yuzaga teng. 1 g silikagelga 0,5 mg brom yutilsa, 6 nm² yuzaga nechta brom molekulasini yutiladi?
A) $4,04 \cdot 10^9$ B) $8,09 \cdot 10^9$ C) $2,42 \cdot 10^{10}$ D) $1,6 \cdot 10^{10}$
104. Noma'lum uglevodorod mo'l miqdordagi vodorod bilan katalitik gidrogenlanganda 2,6-dimetilheptanni, xrom (VI) oksidi bilan oksidlanganda aseton va malon kislotani hosil qiladi. Dastlabki uglevodorodning sistematik nomenklaturasini aniqlang.
A) 1,2-diizopropilsiklopropan
B) 2,6-dimetilgeksadiyen-2,5
C) 2,6-dimetilgeksadiyen-2,4
D) 2,6-dimetilgeksadiyen-1,6
105. Qaysi birikmalarda E-O qutbliligini H-O ning qutbliligiga nisbatan yaqin turadi?
1) $Co(OH)_3$; 2) $In(OH)_3$; 3) $Ni(OH)_2$; 4) $Ga(OH)_3$; 5) $Tl(OH)_3$; 6) H_3PO_2
A) 1,3,6 B) 2,4,5 C) 1,2,5 D) 2,4
106. Bir xil hajmli idishda va bir xil sharoitda olingan quyidagi moddalarning (bir xil sinfga mansub) qaysi bir(lar)ida molekular soni nisbatan ko'p bo'ladi?
1) C_6H_{12} ; 2) C_8H_{16} ; 3) $C_{10}H_{20}$; 4) $C_{12}H_{24}$
A) 1 B) 2,3 C) 4 D) barchasida bir xil
107. Tabiatda volframning ¹⁸⁰W (0,2%), ¹⁸²W (26,3%), ¹⁸³W (14,3%), ¹⁸⁴W (30,7%) va ¹⁸⁶W (28,5%) izotoplari uchraydi. Volfram neytronlarining o'rtacha massasini (g) aniqlang. (⁷⁴W)
A) 109,65 B) 110,025 C) 109,780 D) 109,893
108. Tarkibida massa jihatdan 48,3% kaliy bo'lgan kaliy xlorid va kaliy sulfatdan iborat aralashma suvda eritildi. Hosil bo'lgan eritmadagi kaliy ionining massa ulushi 25% ga teng bo'lsa, eritmadagi xlor anionining massa ulushini (%) aniqlang. (har bir tuzning dissotsilanish darajasi 0,8 ga teng)
A) 6,39 B) 7,81 C) 11,4 D) 4,26